

HEMINGUEY ASARLARIDAGI VOQEA VA VAQT RIVOJI

Baxtiyorova Gulhayo Shavkatjon qizi

NamDU, Adabiyotshunoslik (ingliz tili) 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada taniqli Amerikalik yozuvchi Heminguey Ernest Miller asarlaridagi voqealar rivoji va aynan o'sha paytdagi vaqt ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, yozuvchi asarlari orqali inson va jamiyatdagi tuzum, urush o'rtasidagi munosabatlarni badiiy mahorat bilan tasvirlab berilgani ham aytib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** Alvido, qurol, asarlar, Parij, Amerika, journalist reportyor, Parij, Kuba.*

СОБЫТИЕ И ВРЕМЯ РАЗВИТИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ХЕМИНГУЭЯ

Бахтиёрова Гулхайо,

Литературоведения НамГУ (английский язык) 2 курс аспирант

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о развитии событий в творчестве известного американского писателя Хемингуэя Эрнеста Миллера и о влиянии времени на то время. Упомянулось также, что в произведениях писателя с художественным мастерством описаны взаимоотношения человека и строя в обществе, войны.

***Ключевые слова:** До свидания, оружие, произведения, Париж, Америка, журналист-репортер, Париж, Куба.*

EVENT AND TIME DEVELOPMENT IN THE WORKS OF HEMINGWAY

Baxtiyorova Gulhayo

NamSU Literature (English language) 2nd year graduate student

ABSTRACT

This article provides information about the development of events in the works of the famous American writer Hemingway Ernest Miller and the influence of that time. It was also mentioned that the relations between man and society, the system and war are described with artistic skill through the writer's works.

Keywords: *farewell, weapons, works, Paris, America, journalist reporter, Paris, Cuba.*

Ushbu maqola E. Xeminguey 20-asr madaniyatida asarlarini rivoji bilan katta ta'sir ko'rsatganiga bag'ishlangan bo'lib, oltmishinchi yillar romantik davr — sargardonlik, sarguzashtlarga sig'inish, esingizda bo'lsa, talabalar inqiloblari, notinchlik yillari edi. Birinchi hikoyalar kitobi — “Bizning zamonda”, “Quyosh chiqadi”, “Alvido, qurol” romanlarida urushning mantiqsizliklari, inson haquhuqlari, erkiga tajovuz, ayni paytda, insoniy mardlik, qadrqimmat va muxabbatning har qanday yovuz kuchlardan ustunligi yorqin ifodalangan. Heminguey asarlarida dastlabki jurnalistik kuzatuv o'rnini tahliliy, qiyosiy mulohaza va mushohadalar egallaydi. U har qanday urushni qoralaydi, shu tufayli insoniyat aziyat chekayotganiga e'tibor qaratadi. Inson huquqlari yo'lida, ozodlik kurashida yolg'iz maydonga tushishning halokatli oqibatlariga olib kelishini oddiy kishilar obrazi orqali ifodalaydi.

“Alvido, qurol” romanlarida urushning bemisl mantiqsizliklari, inson haquhuqlari, erkiga tajovuz, ayni paytda, insoniy mardlik, qadrqimmat va muxabbatning har qanday yovuz kuchlardan ustunligi yorqin ifodalangan.⁵

⁵ Jahon adabiyoti jurnali, 2011-yil, 2-son 55-bet

1930 yillarning birinchi yarmida Heminguey ijodida tushkunlikni kuzatish mumkin. Shu davrda yozuvchi hayot yo'lini qayta mulohaza qilib ko'rishga, o'z ijodining muayyan yo'nalishlarini aniqlashga intiladi. Brend tushunchasi haqida gapirar ekanmiz, avvalo, u o'zi nima, bu tushuncha tilimizda qanday ma'no anglatadi kabi savollarga javob berishimiz lozim. Brend tushunchasiga adabiyotlarda umumiy ta'rif keltirilmagan, shuning uchun mavjud ta'riflarning izohi bilan tanishib chiqamiz.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Heminguey ijodida yangi davr boshlangan. Biroq bu davrda yuzaga kelgan "Xavfli yoz" va "Okeandagi orollar" romanlari avvalgilariga qaraganda badiiy jihatdan ancha bo'sh asarlar sanaladi. Lekin ma'lum muddat o'tib, Heminguey insonning ruhiy holatini tadqiq etish bilan jamiyatdagi mavjud vaziyatni ochib berishga qodir asarlarni yaratdi. Badiiy jihatdan ancha yuksak bo'lgan "Daryoning naryog'ida, daraxtlar soyasida" romani, "Chol va dengiz" qissasi Xemingueyga katta shuhrat keltirdi. Heminguey XX asrda o'zigagina xos bo'lgan qat'iy holislikka asoslangan xarakterli uslubni yaratdiki, keyinchalik Amerika qit'asidan yetishib chiqqan yozuvchilar bu uslubga teztez murojaat qiladigan bo'lishdi.

Yozuvchi ijodi har doim o'z davrining ma'naviy muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ernest Xeminguey ijodi ham bundan mustasno emas. Ammo Xeminguey o'z davrining oddiy solnomachisi yoki tarixnavisi emasdi. U o'zi yaxshi bilgan, o'z ko'zi bilan ko'rgan, boshidan kechirganlari haqida yozgan, shaxsiy hayot tajribasi esa u qurayotgan ijod qasrining poydevori bo'lib xizmat qilgan edi. Xemingueyning o'zi ushbu tamoyilni quyidagicha ta'riflaydi: "Roman yoki hikoyani yozish – bu yaxshi bilgan narsalarning asosida badiiy to'qima yaratish demakdir... Badiiy to'qima yaxshi chiqqanda, haqiqatga yaqinroq bo'ladi".

Jurnalda bosilib chiqqan ilk maqolalari va "Uch hikoya va o'nta she'r" (Three Stories and Ten Poems) nomli mo'jazgina kitobidan so'ng, Xeminguey "Bizning davrimizda" (In Our Time, 1925) novellalar to'plamini e'lon qildi va o'z uslubiga ega yozuvchi ekanligini namoyish etdi. Bu kitob kamolotga erishgan yozuvchi ijodining debochasi bo'ldi. Aslini olganda, to'plam ko'p jihatdan Nik Adams obrazi orqali bir-biriga chambarchas bog'langan novellalardan iborat turkum edi. To'plamga kirgan 15

novella ijtimoiy hayot mavzuiga bag'ishlangan bo'lib, ularda na syujet, na kompozitsiya jihatidan yaqin bo'lmagan "interlyudiya"lar to'plamni bir butun yaxlit holga keltirganini kuzatish mumkin.

Yozuvchining eng yaxshi hikoyalardan biri "Kilimanjaro qorlari" ham davr va inson qismati mavzuiga bag'ishlanadi. Hikoya qahramoni yozuvchi Garri obrazida Xemingueyning Parijdagi hayoti, Yaqin Sharq-qa ijodiy safari bilan bog'liq ko'p sahifalar bor. Garchi Xeminguey o'z ijodida jiddiy siyosiy va ijtimoiy hayot muammolarini batafsil yoritishga keng o'rin bermagan bo'lsa-da, "Eskvayr" jurnalida muntazam chop etilgan maqolalarida ziyrak siyosatdon, urush va fashizmga qarshi mustahkam pozitsiyada turgan publitsist sifatida namoyon bo'ldi. Ayni paytda, u ijtimoiy hayotdagi o'ta dolzarb muammo, ya'ni urushdan so'ng nochor ahvolda qolgan odamlar turmushi mavzusiga qayta-qayta murojaat qildi. Heminguey bu davrda Florida shtatidagi Ki-Uest shahrida yashab, mahalliy aholi bilan yaqindan tanishdi, ularning tashvish va quvonchlariga sherik bo'ldi.

Romanda muallif jamiyatda hukm surayotgan vaziyatni hech bir mubolag'asiz va bo'rttirishlarsiz ko'rsatishga harakat qiladi. Adib tasvirlagan jamiyatning bir tomonida nochor ahvolga tushib qolgan, hatto oddiy yashash imkonidan mahrum etilgan qashshoq odamlar, ikkinchi tomonida umrini ko'ngilxushlikda o'tkazayotgan "oqsuyak"lar joy olgandi. Asar g'oyasini kuchaytirish niyatida Xeminguey Garri Morgan taqdiriga mantiqiy nuqta qo'yuvchi bir lavhani ham kiritadi. O'lim to'shagida yotgan Garri Morgan quyidagi chuqur ma'noli so'zlarni aytadi: "Odam yolg'iz yashay olmaydi. Odamni yolg'izlatib qo'ymaslik kerak. – U to'xtab qoldi. – Baribir, odamning bir o'zi hech narsa qilolmas ekan. – U ko'zini yumdi. Shuni aytish uchun unga ko'p vaqt kerak bo'ldi, buni anglab yetishi uchun esa butun hayotini sarfladi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Jahon adabiyoti jurnali, 2011-yil, 2-son.*
2. *O'ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.*